



VOYAGA YETMAGANLARNING JINOYAT ISHLARINI KO'RISHDA ISBOTLANISHI LOZIM BO'LGAN HOLATALAR

Usmonova Naima Toxir qizi

Jizzax viloyati Zarbdor tumani IIB JXX HPB VYMB inspektor-psixologi leytenant

So'nggi yillarda respublikamizda yoshlar siyosati eng ustuvor vazifa hisoblanib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Agar farzandlarimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqa uni yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilm-u hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas" deya ta'kidlagan fikrlaridan ham yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirish, vatanparvar etib tarbiyalash, ular o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish dolzarb masalaga aylanganligini hamda bu boradagi qarashlarga endilikda jiddiy yondashuv ostida qarashimizni anglab olsak bo'ladi.

Shu o'rinda huquqni muhofaza qiluvchi targ'ibot organlari o'smir yoshlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish emas, balki jinoyatchilikning oldini olish, profilaktik chora-tadbirlar ko'rishga e'tiborni kuchaytirdilar. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish va ularning sodir etilishiga sharoit tug'diruvchi vaziyatlarni bartaraf qilish davlat va jamiyat oldida turgan asosiy muammolardan biri sanaladi. Chunki voyaga yetmagan shaxslarning jinoyat sodir etishlari kelgusida ularning retsivist jinoyatchi bo'lish ehtimolini oshiradi hamda bu holat mamlakatning kelajakdagi taraqqiyotiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi. Umumiy jinoyatchilikdan farqli ravishda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi mamlakatning kelgusidagi taqdiri bilan bog'langan bo'lib, ushbu muammoga bugungi kunda alohida e'tibor bilan yondoshilmasa, uning millat kelajagiga salbiy ta'siri ortib ketishi mumkin.

Voyaga yetmaganlar jinoyatlari to'g'risidagi ishlarni ko'rishda O'zbekiston Respublikasi JPK ning 82—84- moddalarida ko'zda tutilgan jinoyat tarkibini aks ettiruvchi va voyaga yetmaganlarning javobgarligi darajasiga ta'sir etuvchi holatlar ham (JPK ning 548- moddasi) e'tiborga olinishi kerak.

Ta'kidlash kerakki, alohida darajada isbotlash predmetini o'rganish muayyan jinoyat ishining barcha ikir-chikirlarini o'rganishni nazarda tutadi. Ma'lum darajada protsessning ayrim ishtirokchilarining shaxsi, ularning tavsifi, individual xususiyatlari, ruhiy holati chetda qolib ketishi mumkin. Bu holatlarning barchasi muayyan jinoyat ishi uchun muhim bo'lib, ular alohida darajada aniqlanishi lozim. Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar majmuida qonun chiqaruvchi voyaga yetmaganlarning yoshini birinchi o'ringa qo'ygan (JPK ning 548- moddasi 1-bandi). Bunday urg'u berish bejiz emas. Ayblanuvchining yoshini aniqlash faqat protsessual jihatga ega bo'lmay, balki moddiy huquqning qator masalalari, jumladan, jinoiy javobgarlik asoslarning mavjudligi, jinoiy jazoning ayrim turlarini qo'llash mumkinligi



jazoni yengillashtiruvchi holatlarga oid masalalarni hal qilishda muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining yuqorida aytilgan Plenumi qarorida shaxsni muayyan yoshga to'lganligini hisoblash qoidalari belgilandi. Unga ko'ra shaxsni 18 yoshga to'lgan kuni boshlangan vaqtdan emas, balki shu kun to'la o'tganidan keyin hisoblanadi, ya'ni keyingi kunning boshlanishidan 18 yoshga to'lgan hisoblanadi. Agar voyaga yetmaganning yoshi aniq bo'lmasa, ekspertlar xulosasi orqali aniqlanadi. Agar ekspertlar muayyan yilni voyaga yetmaganning tug'ilgan kuni deb xulosa bersalar, shaxsning tug'ilgan kuni o'sha yilning oxirgi kundan hisoblanadi. Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarning yana biri uning ijtimoiy holatidan kelib chiqadigan shaxsiga xos xususiyatlarni aniqlashdan iboratdir. Buni voyaga yetmaganning hayotiy tajribasizligi, biron odamga o'xshashga, tengdoshlari orasida o'zini ustun qo'yishga intilishi, o'ta ta'sirchanligi, hurmat-e'tibor qozonishni xohlashi, kayfiyatining keskin o'zgarib turishi, o'ylamasdan harakatlar qilishi, voqealarni o'z dunyoqarashi jihatidan qabul qilishi va huquqiy jihatdan cheklangan layoqat maqomi bilan ta'riflash mumkin. Voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlarini yuritishda ularning ijtimoiy-ruhiy holatlarini hisobga olish e'tiborga molikdir. 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarda bir tomondan yetuklik alomatlarini, ya'ni ularda mustaqillikning shakllanishi, o'zini tuta bilish va idora qilish namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularda ijtimoiy ulg'ayishning davom etayotganligi (maktab yoki boshqa bilim dargohida o'qishni davom ettirishi, jamiyatda o'z-o'zini topishga intilish, muomala layoqatining rivoji) ko'rinadi.

Voyaga yetmaganning salomatligi haqidagi ma'lumotlarni uni davolagan shifokorlar, kasalxona va poliklinikalarda yuritilgan rasmiy hujjatlardan olish zarur bo'ladi. Salomatlik to'g'risidagi xabarlarini voyaga yetmaganning ota-onasi, qonuniy vakillari, qo'shnilari, tanishlari va unga yaqin bo'lgan shaxslar ham bilishlari mumkin. Isbotlanishi lozim bo'lgan holatlardan yana bir voyaga yetmaganning turmush va yashash sharoitlarini aniqlashdir.

Bunda voyaga yetmaganning ota-onasi yoki qonuniy vakillari to'g'risidagi barcha ma'lumotlar ilova qilinishi lozim (ularning ma'lumoti, mutaxassisligi, ma'naviy xususiyatlari, farzandlariga bo'lgan munosabatlari, bolaning ota-onasiga bo'lgan munosabati, hurmati, uni tarbiyalashdagi ishtiroki). Voyaga yetmaganning moddiy ahvoli (oilaning moddiy-xo'jalik ahvoli, voyaga yetmaganning mulki, uning maoshi miqdori), uning ma'lumoti haqidagi axborotlar ham e'tiborga olinadi (qayerda o'qishi, qobiliyati, baholari, o'qishga munosabati, kattalarga, rahbariyatga, oilasiga, tengdoshlariga munosabatlari). Oilada ota-onalar bolalarida ro'y berayotgan o'zgarishlarga befarq qaramasliklari, bolalarning kayfiyati, o'zini tutishi va hokazolarga e'tibor bermoqlari lozim.

Aniqlanishi lozim bo'lgan sharoitlardan yana biri voyaga yetmaganning aloqalari, bo'sh vaqtini o'tkazish muhiti, uning qiziqish doiralari, mahallada va uyda o'zini tutishi, qanday uyushmalarga a'zolicini aniqlashdir. Voyaga yetmaganni jinoiy qilmish



sodir qilishdan avval qanday huquqbuzarliklar sodir etgani, unga nisbatan qanday choralar qo'llanilgani va bu choralar qanday natijalarga olib kelgani to'g'risidagi ma'lumotlar o'rganilishi lozim. Bundan tashqari agar voyaga yetmagan shaxs hech qayerda o'qimasa yoki ishlamasa, buning sabablari ham o'rganilishi kerak.

Katta yoshli dalolatchilarning ishtirokini isbotlash voyaga yetmagan ishtirokchining jinoiy qilmishini tahlil qilish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bundan tashqari, bu holda gap faqat JK ning 56-moddasi 7-bandida ko'rsatilgan holatlar yoki JK ning 127-moddasida ko'zda tutilgan katta yoshli shaxsning voyaga yetmagan shaxsga bo'lgan jinoiy aloqasining turli shakllariga bog'liq javobgarlikni belgilovchi yoki uning darajasiga bevosita ta'sir etuvchi tarkib haqida ketmaydi. JPK ning 548-modda 4-bandida ko'zda tutilgan isbotlash predmeti elementi katta yoshli ishtirokchining aybdorligini voyaga yetmaganlarga tegishli bo'lmagan tarkiblar (JK ning 31,171,241,249-moddalari) bo'yicha belgilash uchun kvalifikatsiyaga ta'sir qiluvchi belgilarni aniqlashni ham nazarda tutadi. Jinoyat ishi bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar majmuida jinoyat tufayli yetkazilgan ziyonning xususiyati va miqdori muhim ahamiyatga ega.

Bola tarbiyasi oiladan, bolalar bog'chasidan boshlanadi. Ularning ongiga milliy axloq-odob, yurtga muhabbat, Vatanga sadoqat tuyg'ularini singdirishni aynan shu davrdan boshlash kerak. Bu jarayon maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida davom ettirilib, shu yo'l bilan takomillashtirib boriladi. Voyaga yetmaganlar o'rtasida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, bunga mas'ul davlat idoralari hamda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida 2000-yil 21 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan «Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida» 360-sonli qaror qabul qilindi. Mazkur qaror voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni yangi bosqichga ko'tarishga hamda mutasaddi idoralarning tashabbuskorlik bilan faoliyat ko'rsatishiga huquqiy zamin yaratdi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, bu holatlarning o'ziga xos ahamiyatini ko'rishimiz mumkin: ular protsess davomidayoq ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar voyaga yetmagan shaxs tarbiyasini davom ettirishlari izchil yoki qiyin emasligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi. Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha fuqaroviy da'voga o'smirni unga ma'naviy jihatdan salbiy ta'sir ko'rsatayotgan muhitdan darhol ajratishni talab qilish masalasini ham kiritish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi. T-2021 yil.



2. Xushvaqto'v O'. Kriminal madaniyatning o'smirlar xulq-atvoriga ta'siri va uni oldini olish choralari. -T.: Huquq Pravo Law 2005.
3. Usmonaliyev M., Karaketov Y. Kriminologiya. - T.: Yangi asr avlodi. 2007 B-35.
4. Sattorova M. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olish. - T.: TDYI 2006 B-65.
5. Abdurasulova Q., Nizova S. Jinoyatchilik va jinoyatchi shaxsi muammolari. - T.: TDYI. 2006. -B.75.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5050-son qarori 02.04.2021-yil "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida".